



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib, mlrd. so'm



O'sish sur'atlari, % da




Tarkibiy qism, % da



Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 775,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **3,2** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi **1 353,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **160,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi **6 421,5** mlrd. so'mni (**4,0** % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **297,7** mlrd. so'mni (**33,0** % ga kamaydi) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

ENG YUQORI ULUSH

Navoiy sh.
2 800,1

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **36,0 %** ulush bilan **2 800,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Karmana t.
1 208,3

Qiziltepa t.
895,1

Xatirchi t.
894,5

Zarafshon sh.
678,8

Navbahor t.
403,4

Uchquduq t.
322,3

Nurota t.
313,0

Konimex t.
205,5

Tomdi t.
54,0

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 775,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **103,2 %** ni tashkil etdi.

Viloyatimizning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **82,6 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **17,4 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,7 %** ulush bilan **54,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	7 775,0	103,2	1 353,5	160,3	6 421,5	96,0
Navoiy sh.	2 800,1	104,8	1 231,6	153,8	1 568,5	83,8
Zarafshon sh.	678,8	103,0	15,0	136,5	663,8	102,5
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	1 208,3	102,8	50,6	18,7 m	1 157,7	98,8
Konimex	205,5	103,5	6,9	7,4 m	198,6	100,5
Qiziltepa	895,1	101,5	12,8	138,3	882,3	101,2
Navbahor	403,4	101,8	3,7	3,6 m	399,7	101,1
Nurota	313,0	102,3	5,0	168,6	308,0	101,7
Tomdi	54,0	102,0	0,6	188,3	53,4	101,5
Uchquduq	322,3	101,2	2,5	2,6 m	319,8	100,8
Xatirchi	894,5	102,6	24,8	172,9	869,7	101,4


2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning Navoiy (104,8 %) va Zarafshon shahri (103,0%), Konimex (103,5 %), Karmana (102,8 %) va Xatirchi tumanlarida (102,6 %) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi, nisbatan past ko'rsatkichlar Qiziltepa (101,5 %) va Uchquduq (101,2 %) tumanlarida qayd etildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar




Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **60,3 %** ga o'sdi va **1 353,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 421,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **4,0 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,6 %** ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, % da

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uchquduq (**99,2 %**), Navbahor (**99,1 %**), Tomdi (**98,9 %**), Qiziltepa (**98,6 %**), Nurota (**98,4 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **17,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahrida (**44,0 %**), Karmana (**4,2 %**), Konimex (**3,4 %**), Xatirchi (**2,8 %**) tumanlarida kuzatildi.



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **7 732,4** ming so'm (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **1,5** % ga o'sdi) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**19 231,3** ming so'm), Karmana (**9 521,8** ming so'm) va Uchquduq (**8 593,4** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	7 732,4	101,5
Navoiy sh.	19 231,3	103,0
Zarafshon sh.	8 033,4	101,3
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	9 521,8	100,3
Konimex	5 724,6	101,8
Qiziltepa	5 857,8	100,0
Navbahor	3 547,8	100,1
Nurota	3 354,8	100,6
Tomdi	3 626,2	100,0
Uchquduq	8 593,4	100,4
Xatirchi	4 463,5	100,9




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, % da




Dehqon
bozorlari



Chorva (parranda)
bozorlari

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, % da



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **297,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **33,0** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **191,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **80,3** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **106,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **51,5** %) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo

Shu jumladan:

Dehqon
bozorlari

Chorva
bozorlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

Savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo

297,7 mlrd. so'm, 100 %

Dehqon bozorlari

**191,7 mlrd. so'm,
64,4 %**

Chorva bozorlari

**106,0 mlrd. so'm,
35,6 %**

24,0

Navoiy sh.

24,8

Karmana t.

26,8

Xatirchi t.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	297,7	67,0	191,7	80,3	106,0	51,5
Navoiy sh.	71,3	90,3	71,3	90,3	-	-
Zarafshon sh.	9,8	58,3	9,8	58,3	-	-
tumanlar:						
Karmana	74,0	46,7	6,1	48,7	67,9	46,5
Konimex	8,7	58,9	5,0	80,7	3,7	43,0
Qiziltepa	31,4	68,2	21,1	81,0	10,3	51,7
Navbahor	2,0	74,3	2,0	74,3	-	-
Nurota	14,4	76,7	6,1	76,5	8,3	76,8
Tomdi	2,4	51,4	2,4	51,4	-	-
Uchquduq	4,0	63,4	4,0	63,4	-	-
Xatirchi	79,7	82,0	63,9	83,3	15,8	76,9

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo tovar aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **191,7** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **106,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



1,8
mlrd. so'm

Tuzlamalar



106,0
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



7,8
mlrd. so'm

**Qurilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)



13,8
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



20,0
mlrd. so'm

**Non va non
mahsulotlari**



2,9
mlrd. so'm

Ziravorlar



4,9
mlrd. so'm

Tuxum



14,9
mlrd. so'm

Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)



3,4
mlrd. so'm

**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)



4,4
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**




11,8
mlrd. so'm

**Chorva mollari va parrandalar
uchun har xil yem-xashaklar**

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo tovar aylanmasi hajmi **191,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi (**106,0** mlrd. so'm) ga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo tovar aylanmasi hajmi **106,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **84,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **20,4** mlrd. so'mni, otlar **0,7** mlrd. so'mni, parrandalar **0,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil- ning yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil- ning yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil- ning yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	155,1	81,7	13,8	106,7	141,3	79,9
Navoiy sh.	52,0	70,1	9,5	74,7	42,5	69,2
Zarafshon sh.	27,0	102,8	4,1	-	22,9	87,2
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	33,3	102,3	0,2	105,6	33,1	102,3
Konimex	3,3	86,5	-	-	3,3	86,5
Qiziltepa	10,9	68,2	-	-	10,9	68,2
Navbahor	6,1	98,1	-	-	6,1	98,1
Nurota	3,7	76,6	-	-	3,7	76,6
Tomdi	0,7	42,3	-	-	0,7	42,3
Uchquduq	5,0	66,8	-	-	5,0	66,8
Xatirchi	13,1	77,3	-	-	13,1	77,3

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0 %** ni tashkil etib, **155,1** mlrd. so'mga yetdi va 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **18,3 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **91,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO TOVAR AYLANMASI

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, % da	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, % da	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	155,1	100,0	145,7	93,9	9,4	6,1
Navoiy sh.	52,0	33,5	42,7	82,0	9,3	18,0
Zarafshon sh.	27,0	17,4	27,0	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	33,3	21,5	33,2	99,8	0,1	0,2
Konimex	3,3	2,2	3,3	100,0	-	-
Qiziltepa	10,9	7,0	10,9	100,0	-	-
Navbahor	6,1	4,0	6,1	100,0	-	-
Nurota	3,7	2,4	3,7	100,0	-	-
Tomdi	0,7	0,4	0,7	100,0	-	-
Uchquduq	5,0	3,2	5,0	100,0	-	-
Xatirchi	13,1	8,4	13,1	100,0	-	-

2019- yil
yanvar-dekabr



2020- yil
yanvar-dekabr



Nodavlat mulk




Davlat mulki

2019- yilning yanvar-dekabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,8 % dan 6,1 % ga kamaygan.


Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **155,1** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati **81,7** %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **145,7** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**93,9** %) hamda **9,4** mlrd. so'm (**6,1** %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib, % da




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, % da



Savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 611,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **27,2 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **494,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **44,9 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 116,9** mlrd. so'mni (**0,4 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	1 611,7	72,8	494,8	44,9	1 116,9	100,4
Navoiy sh.	868,4	57,0	451,0	41,0	417,4	98,7
Zarafshon sh.	27,1	87,9	-	-	27,1	87,9
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	390,6	124,3	12,1	789,4 m	378,5	120,5
Konimex	7,0	2,2 m	2,2	-	4,8	149,7
Qiziltepa	122,8	106,1	-	-	122,8	106,1
Navbahor	72,1	120,7	29,5	-	42,6	71,4
Nurota	26,5	75,7	-	-	26,5	75,7
Tomdi	2,2	64,4	-	-	2,2	64,4
Uchquduq	27,4	61,0	-	-	27,4	61,0
Xatirchi	67,6	80,4	-	-	67,6	81,6

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Konimex (2,2 marta), Karmana (124,3 %), Navbahor (120,7 %), va Qiziltepa (106,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida 2019- yilning mos davriga nisbatan kamayish ko'rsatkichlarini Navoiy (57,0 %) va Zarafshon (87,9 %) shaharlarida hamda Xatirchi (80,4 %), Nurota (75,7 %), Tomdi (64,4 %) va Uchquduq (61,0 %) tumanlarida ko'rishimiz mumkin.

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rne ko'payib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi **0,14 %** ni tashkil qildi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 611,7** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 609,4** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **2,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hozirda faqatgina Karmana tumanida saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.